UDC: 616.857:616-007.17

BIRIKTIRUVCHI TO'QIMANING NOSPESIFIK DISPLAZIYASI MAVJUD BEMORLARDA MIGREN KASALLIGINING O'ZIGA XOS KECHISHI

Raxmatullaeva G.K., Shakirova S.O.
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O'zbekiston)

SPECIFIC FEATURES OF MIGRAINE IN PATIENTS WITH NONSPECIFIC CONNECTIVE TISSUE DYSPLASIA

Rakhmatullaeva G.K., Shakirova S.O.
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МИГРЕНИ У ПАЦИЕНТОВ С НЕСПЕЦИФИЧЕСКОЙ ДИСПЛАЗИЕЙ СОЕДИНИТЕЛЬНОЙ ТКАНИ

Рахматуллаева Г.К., Шакирова С.О.
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Mavzuni dolzarbligi. BTND bilan og'rigan bemorlarda migrenning uchrash chastotasi yuqori bo'lib, tadqiqotlarga ko'ra, bunday bemorlarning 50–70% da muntazam migren epizodlari kuzatiladi. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar BTND bilan bog'liq mexanik, vaskulyar va nevral o'zgarishlarning migren rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatmoqda. BTND bilan og'rigan bemorlarda migrenning tez-tez uchrashi, uning davomiyligi va og'irligi ko'proq kuzatiladi, bu esa kasallikning individual davolash strategiyasini belgilashni muhim qilmoqda.

Tadqiqot maqsadi. Biriktiruvchi to`qimaning nospesifik displaziyasi bo`lgan bemorlarda migren kasalligining o`ziga xos kechishini baholash

Material va usullar. 30 nafar migren kasalligi mavjud bemorlar o'rganiladi. (22(73,3%) tasi ayol, 8(26,7%) tasi erkak.) Bemorlarning o'rtacha yoshi 48 yoshga teng. Ushbu bemorlar 2 guruhga bo'linib o'rganiladi. 1-guruh faqat migren kasalligi bor bemorlar (20 ta), 2-guruh migren va BTND mavjud (10ta) bemorlar. Bemorlar "Shox Med International Hospital" va TTA ning Nevrologiya bo'limidan to'plandi. Bemorlarda BTND mavjudligi va kechish darajasi Smolneva T. Yu. Shkalasi yordamida, migren kasalligining kechish xususiyatlari esa VASH va MIDAS shkalalari yordamida aniqlandi.

Natijalar. Bemorlarning 1-guruhida VASH shkalasi bo`yicha 45% ida o`rtacha darajadagi doimiy bo`lmagan og`riq, 45% ida esa o`rta darajadagi doimiy bo`lgan og`riqlar aniqlandi. Qolgan 10% ida esa kuchli bosh og`rig`i bilan baholangan. 2-guruhda esa ushbu shkala bo`yicha o`rta darajada doimiy og`riq, kuchli va juda kuchli chidab bo`lmaydigan bosh og`riqlari mos ravishda 30%, 40%,30% larda aniqlanadi. Doimiy bo`lmagan o`rta darajadagi og`riqli bemorlar aniqlanmadi. MIDAS shkalasi asosida 1-guruh bemorlarning 25% ida juda past layoqatsizlik, 55% ida yengil layoqatsizlik, 20% ida o`rta darajadagi layoqatsizlik aniqlandi. Og`ir darajadagi nogironlik qayd etilmadi. 2-guruh bemorlarda esa faqat 3-va4-darajadagi layoqatsizlik aniqlandi. Mos ravishda 50% va 50% ga to`g`ri keldi. Tmolneva.S. Yu shkalasi asosida esa

10ta bemordan 60% ida yengil darajadagi BTND aniqlandi. 40% ida esa o`rta og`irlikdagi BTND tashxisi qo`yildi. Og`ir darajadagi BTND aniqlanmadi.

Xulosa. Yuqoridagi ko`rsatkichlar asosida BTND va migren o`rtasida bog`liklik aniqlandi. BTND mavjud bemorlarda migren kasalligida bosh og`riqlarining kuchliroq namoyon bo`lishi va bemorning hayot sifatiga sezilarli darajada ta`sir qilishi aniqlandi. Bu esa migren kasalligini davolashda BTND ni ham patogenezini inobatga olish kerakligini anglatadi.